



ERKIN AZAM IJODINING O'RGANILISHI: "HULO'L" HIKOYASI TAHLILI

Buxoro xalqaro universiteti

1-kurs magistranti

Kumakova Guljahon Davrin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin A'zam ijodi, xususan "Hulo'l" hikoyasining badiiy va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda hulo'l obrazi orqali inson xotirasi, o'tmish iztiroblari va ruhiy kechinmalar ramziy ifodalanishi yoritilgan. Shuningdek, Boybichcha, Oybibi va bosh qahramon obrazlari misolida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ichki ziddiyat va insoniylik masalalari ochib berilgan. Tadqiqotda adibning kinoyaviy uslubi hamda obraz yaratish mahorati asosiy e'tibor markazida bo'ladi.

Kalit so'zlar: Erkin A'zam, "Hulo'l", obrazlar tizimi, kinoya, psixologik tasvir, ramz, xotira, ijtimoiy ziddiyat, insoniylik, badiiy tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество Erkin A'zam, в частности художественные и психологические особенности рассказа «Hulo'l». Показано, что образ хулёла выступает как символ памяти, пережитых страданий и внутреннего мира человека. На примере образов Бойбичча, Ойбиби и главного героя раскрываются социальное неравенство, внутренние противоречия и проблемы человечности. Особое внимание уделяется ироническому стилю писателя и его мастерству создания образов.

Ключевые слова: Эркин Азам, «Hulo'l», система образов, ирония, психологизм, символ, память, социальный конфликт, человечность, художественный анализ.

Kirish. O'zbek zamonaviy nasrida o'ziga xos badiiy tafakkuri, nozik psixologik tasvir mahorati va kinoyaviy ifoda uslubi bilan ajralib turadigan



adiblardan biri — Erkin A'zam hisoblanadi. Uning ijodi inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochishga, kundalik hayot voqealarida chuqur ma'naviy-axloqiy mazmuni ko'ra bilishga yo'naltirilgani bilan e'tiborlidir. Adib asarlarida oddiy voqelik ortida yashiringan falsafiy mushohada, jamiyatdagi ijtimoiy-ruhiy muammolar, insonning ichki kechinmalari teran badiiy talqin etiladi. Shu bois ham Erkin A'zam nasri o'zbek adabiyotida nafaqat estetik hodisa, balki muayyan tafakkur maktabi sifatida qaraladi.

Adib ijodining o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda Erkin A'zam ijodini o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortdi. Adibning ilk asarlaridayoq uning iste'dodi adabiy jamoatchilik e'tiborini tortgan va dastlabki baholar ijobiy ruhda bo'lgan. Jumladan, adibning ilk ijodiy izlanishlariga U.Normatov¹, N.Xudoyberganov², N.Shukurov³, N.Vladimirova⁴, R.Otayev⁵, H.Boltaboyev^{6,7} kabi adabiyotshunos va tanqidchilar munosabat bildirib, uning nasrida yangicha badiiy tafakkur shakllanayotganini qayd etganlar. Ushbu tadqiqotlarda, asosan, adibning uslubiy o'ziga xosligi, obraz yaratish mahorati hamda realistik tasvir bilan kinoyaviy ifoda uyg'unligi alohida ta'kidlangan. Mustaqillik yillariga kelib esa Erkin A'zam ijodiga bo'lgan ilmiy yondashuv yanada chuqurlashdi va tizimli tus oldi. Bu davrda adib asarlari faqat adabiy-estetik jihatdan emas, balki lingvopoetik, psixologik hamda kulturologik nuqtayi nazardan ham

¹ Normatov U. Кичик мўъжизалар // ЎзАС, 1982, 14 май.

² Худойберганов Н. Ўзи ҳам, сўзи ҳам / Сени ўйлайман, замондош (70–80-йиллар ўзбек насри, шеърияти ва адабий танқидчилиги ҳақида ўйлар, мулоҳазалар, мунозаралар). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 90-130.

³ Шукуров Н., Ҳасанов И. Камалақдек ранг-баранг // Ёшлик. – 1984. – №12. – Б. 68-71; Тоғаев О. Гражданин – инсоннинг шаклланиши (Эркин Аъзамовга) / Прометей олови. – Т.: Ёш гвардия, 1985. – Б. 112-124

⁴ Владимирова Н. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Т: Фан, 2011. – С. 129-130;

⁵ Отаев Р. Дилрабо қўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163; Болтабоев Ҳ. Ўз сўзини излаб // ЎзАС, 1982, 20 август.

⁶ Болтабоев Ҳ. Ўз сўзини излаб // ЎзАС, 1982, 20 август.



tadqiq etila boshlandi. Xususan, A.Rasulov⁸, S.To‘laganova⁹, M.Qo‘chqorova¹⁰, M.Sheraliyeva¹¹larning ilmiy izlanishlarida adib nasrining turli qirralari — badiiy til, kompozitsiya, obrazlar tizimi, muallif modusi kabi masalalar keng tahlil qilingan.

Erkin A‘zam ijodini o‘rganishda ayrim olimlarning hissasi alohida ajralib turadi. Xususan, M.Qo‘chqorova va M.Sheraliyeva tadqiqotlari bu borada yetakchi o‘rin egallaydi. M.Qo‘chqorova asarlarida adib nasrining kinoyaviy tabiati va badiiy shartlilik masalalari chuqur tahlil qilinadi. U kinoyaviy obraz yaratish, ramziy timsollar (xususan, suv obrazi) va yangilangan realizm xususiyatlarini ochib beradi. M.Sheraliyeva esa Erkin A‘zam asarlarida qahramon obrazi, “kichkina odam” konsepsiyasi hamda nasrdagi lirizm va kinoya uyg‘unligini tadqiq etadi. Umuman, aynan shu ikki olima tadqiqotlari Erkin A‘zam nasrining badiiy-estetik mohiyatini eng tizimli va chuqur yoritgan ishlardan hisoblanadi.

Alohida ta‘kidlash joizki, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Obidjon Shofiyev¹² tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Erkin A‘zam ijodini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Olim adib nasrining badiiy xususiyatlarini, xususan, kinoya (ironiya) va obraz yaratish masalalarini monografik planda chuqur o‘rganib, maxsus dissertatsiya himoya qilgan hamda ilmiy monografiya nashr ettirgan. Ushbu tadqiqotlarda Erkin A‘zam asarlaridagi kinoyaning semantik va funksional xususiyatlari, uning muallif pozitsiyasini ifodalashdagi roli, obrazlar tizimidagi badiiy yuklamasi keng yoritilgan. Umuman olganda, Erkin A‘zam ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar adib nasrining

⁸ Rasulov A. Жасур қалам соҳиби // Шарқ юлдузи. – 2010. – №5. – Б. 68-75; Шу муаллиф. Услуб – истеъдод портрети (Эркин Аъзам ижоди). Адабий портрет. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2013. – 108 б.;

⁹ Тўлаганова С. “Қуроқ”нинг кўзи // Ёшлик. – 2014. – №12. – Б. 35-37; Шу муаллиф. Янгиланаётган қаҳрамон талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. – №4. – Б. 95-99;

¹⁰ Қўчқорова М. “Шовқин”нинг шов-шувлари // Ёшлик. – 2013. – №1. – Б. 44-45; Шу муаллиф. Киноявий образ яратилган бадий шартlilik воситалари / Ўзбек адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: 2013. – Б. 45-60;

¹¹ Шералиева М. “Кичкина одам”нинг овози // Гулистон. – 2002. – №1. – Б.60; Шу муаллиф. Қаҳрамон позицияси эстетик аналогия сифатида / Бобурнинг андишаси. Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 35-42; Шу муаллиф.

¹² Шофиев О. Эркин Аъзам насри бадийяти (киноя ва образ). Монография. – Т.:2019. –176 б.



ko‘p qatlamli va murakkab badiiy tabiatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan alohida jihatlar — kinoya, obraz, uslub, muallif modusi doirasida olib borilgan bo‘lib, adib ijodini kompleks, tizimli va qiyosiy planda o‘rganish hali ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Quyida E.Azamning noodatiy usulda yozilgan “Hulo‘l” hikoyasini tahlil qilamiz:

Erkin A‘zamning “Hulo‘l” hikoyasi nomi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqur ifodalovchi muhim ramziy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyada “hulo‘l” dastlab oddiy o‘simlik “na‘matak” sifatida tasvirlansa-da, voqealar rivoji davomida u kengroq ma‘no kasb etadi. Bolalik xotiralari bilan chambarchas bog‘langan hulo‘l obrazi qahramon uchun og‘ir mehnat, iztirob bilan yo‘g‘rilgan davrni eslatadi. Uning tikanlari bolalarning qo‘lini tilgani kabi, o‘sha davr voqealari ham qahramon qalbida og‘riqli iz qoldirgan. Biroq asar yakuniga kelib hulo‘lning ma‘nosi o‘zgaradi. Oybibi tomonidan sovg‘a qilingan hulo‘l endi azob emas, balki samimiyat, insoniylik va beg‘araz mehr timsoliga aylanadi. Shu tariqa, bir vaqtlar og‘riq va mashaqqat belgisi bo‘lgan obraz keyinchalik ruhiy poklanish va xotira orqali qadrlanadigan ma‘noga ega bo‘ladi. Ko‘rinadiki, hikoya nomi — “Hulo‘l” — faqat bir predmet nomi emas, balki inson hayotidagi o‘tmish, xotira va ruhiy kechinmalarni mujassam etuvchi ramzdir. U orqali muallif inson qalbida saqlanib qoladigan eng oddiy voqea ham vaqt o‘tishi bilan chuqur ma‘naviy mazmun kasb etishini badiiy ifodalaydi.

– *Voy, muncha chiroyli! Toza ipakdanmi deyman. Kashtalari zarrin, bejirimligini ayting. Hindistonning moliga o‘xshaydi... Ichidagi nima ekan?*

– *Ko‘rgin-chi. Ochib qaramabman ham. Qani?.. **Hulo‘lmi?** Ha, ha, o‘zginasi – **hulo‘l!** Obbo, kasofat-ey! Kishining xayoliga ham kelmaydi-ya!..*

– *Hulu deysizmi? Na‘matak-ku bu! Oddiy na‘matak.*

– *Kim bilsin, bizda shunaqa deydi – hulo‘l. Sheva bo‘lsa kerak-da. Buning na‘matak ekanini Toshkentga kelib bilganman.*



Boybichcha bilan uchrashuv — bu shunchaki oddiy ko‘rishuv emas, balki qahramonning o‘z o‘tmishi bilan yuzma-yuz kelishi, ichki dunyosida kechayotgan yashirin iztiroblarning qayta uyg‘onishidir. Bu uchrashuv orqali u allaqachon unutilgandek tuyulgan bolalik xotiralarini yana boshdan kechiradi. Boybichchaning dabdabali hayoti, o‘ziga ishonganligi va hukmron ohangi qahramon ongida keskin qarama-qarshilik uyg‘otadi: bir tomonda – sodda, ammo og‘riqli bolalik, ikkinchi tomonda – sun‘iy hashamat va begonalashgan hozirgi zamon. Ayniqsa, Boybichchaning o‘tmishni eslatishi, eski laqablarni tilga olishi, hulo‘l bilan bog‘liq voqealarni qayta jonlantirishi qahramon ruhiyatida uyat, iztirob va ichki noqulaylikni kuchaytiradi. Bu jarayon oddiy xotirlash emas, balki o‘z-o‘zini anglash, o‘z o‘tmishidagi zaifliklar bilan to‘qnashishdir. Qahramon Boybichchaga qarab turib, aslida o‘zi kim bo‘lganini, qanday ruhiy bosimlar ichida ulg‘ayganini yana bir bor his qiladi. Shu ma’noda, bu uchrashuv tashqi voqea sifatida emas, balki chuqur psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi: u orqali insonning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, ammo xotiralar va ichki jarohatlar yo‘qolmasligi ochib beriladi. Boybichcha — faqatgina bir obraz emas, balki qahramonning o‘tmishini tiriltiruvchi, uni o‘z ichki olamiga qaytaruvchi kuch sifatida gavdalanadi.

– *Shundoq devor-darmiyon qo‘shni edik, – deya darrov oraga suqilib, eriga izoh bera boshlaydi Boybichcha. – O‘rtada katta bir ko‘ksulton,shoxiga yopishamiz. O‘zaro janjal! Qarang, bola ekanmiz-da, a! Boybichcha bir mahal sho‘xlik bilan senga ko‘z qisib:*

– *O‘shandagi laqabingiz esingizdadir? – deb qolsami! – Bu kishining oldida aytsam xafa bo‘lmasiz?*

– *Ayting. Aytavering, – deding yuraging shuv etib. Gumoning boshqa yoqdan edi – bu xotindan har gapni kutish mumkin.*

– *Qoravoy! Shunaqa edi-ya? “Qoravoy, qoravoy” desa battar ko‘karib, jahlingiz chiqib ketardi, to‘g‘rimi? Mana, mana, hozir ham birdan...*

Erkin A‘zamning “Hulo‘l” hikoyasida obrazlar tizimi o‘zaro qarama-qarshilik



asosida qurilgan bo‘lib, har bir qahramon orqali muayyan ijtimoiy va ruhiy qatlam ochib beriladi.

Boybichcha (Nazokat) obrazi asarda eng murakkab va ziddiyatli timsollardan biridir. U bolalikda sho‘x, hukmron va biroz shafqatsiz qiz sifatida namoyon bo‘ladi: tengqurlarini boshqarishga intiladi, ularning ustidan kuladi, hatto uyalish va xo‘rlik hissini boshqalarga majburan yuklaydi. Oradan yillar o‘tib, u butunlay boshqa qiyofada — boy, o‘ziga ishongan, dabdabali hayot kechirayotgan ayol sifatida gavdalanadi. Ammo uning tashqi hashamati ichki bo‘shliqni yashira olmaydi. Boybichchaning uzluksiz maqtanishi, o‘tmishni istehzoli ohangda eslatishi va boshqalarni o‘zidan past qo‘yishi uning ruhiy notinchligi, ma’naviy qoniqmaganligini anglatadi.

– Huv anovini ko‘ryapsizmi? Orxideya! Gollandiyadan opkelganman. Baxmalday qop-qora atirgullarim ham bor. Archaning orqasida, hozir ko‘rinmayapti. Lolayu atirgul degani o‘zimizda ham tiqilib yotibdi-yu, antiqalariga qiziqaman-da.

Yaxshi-ya? Mushki anbar. Bir tomchigina tomizib qo‘ysangiz bas. Tepasida tuynukchasi bor. Dubaydan kelgan. Dubayda bo‘lganmisiz? Voy, bir magaziniga kirdi-ik – shahar deysiz, shahar! Jazirama yoz ham shunda, qahraton qish ham shunda. Bir yoq sahro, bir yog‘i oppoq qor qoplagan tepaliklar. Pastrog‘-u, lekin xuddi o‘zimizning Jiydali adirlarini eslatadi. Ishonsangiz, bitta-yarim erinmagani po‘stin kiyib chang‘i uchib ham yuribdi! Voajab deb yoqamni ushlab qolibman. Bo‘lmasa – to‘rt tomon sahro! Arabiston-da! – Sayohatini ta‘riflay-ta‘riflay, Boybichcha tuyqus odatdagidek o‘tkir tikilib qaraydi. – Dubaychi xotinlardan bo‘pketibdi deb o‘ylamang tag‘in.

Oybibi obrazi esa Boybichchaga mutlaqo zid qo‘yilgan. U bolalikda ezilgan, xo‘rlangan, himoyasiz qiz sifatida tasvirlanadi. Nazokatning zulmi ostida qolgan bu



qizaloqning nochorligi, qo‘rquvi va himoyasizligi o‘quvchida achinish hissini uyg‘otadi. Vaqt o‘tib, uning hayoti ham keskin o‘zgarib ketmaydi — u yana past ijtimoiy pog‘onada qoladi, xizmatkor darajasida yashaydi. Biroq uning ichki dunyosi pok saqlanib qoladi. Hikoya yakunida Oybibi tomonidan berilgan hulo‘l oddiy sovg‘a emas, balki uning qalbida saqlanib qolgan mehr, samimiyat va insoniylik ifodasidir. Shu jihatdan Oybibi obrazi insoniy fazilatlarni yo‘qotmagan, ruhiy poklikni asrab qolgan timsol sifatida gavdalanadi.

Oybibi deng! Kim ekan u kishim?

– Yaxshilik qilgisi kelgan bir xotin-da. Bolalikda birga hulo‘l terib yurardik.

O‘shalarni eslagandir, qaydam.

– Atay na‘mataklar terib, mana bundoq xaltachalarga joylab bergan xotin kim bo‘lsaki...

– Bilging kelyaptimi? O‘zi qop-qora, qoqsuyak, sochi oppoq, tishlari to‘kilib bitgan...

– Hah, opqoching, opqoching! O‘sha na‘matak tergan vaqtlaringizda yaxshi ko‘rgansiz-da, a? Unda yoshgina, shiringina qiz bo‘lgandir, shundaymi?

– Bo‘lgandir, bo‘lgandir... Mishig‘i oqib, qovur-g‘alari sanalib yotardi!

– Bechora! Rahmingiz kelgandir?

– Kelgan. Hozir ham rahmim keladi.

Asardagi bosh qahramon esa o‘tmish va hozirgi hayot o‘rtasida qolgan, ichki ziddiyatlarni boshdan kechirayotgan shaxsdir. U voqealarni kuzatuvchi sifatida namoyon bo‘lsa-da, aslida butun hikoya uning ruhiy kechinmalari orqali ochiladi. Boybichcha bilan uchrashuv uning xotirasini uyg‘otadi, bolalikdagi uyatli va og‘riqli voqealarni qayta tiriltiradi. Qahramon o‘zining bolalikdagi ojizligi, qo‘rquvi va ichki iztiroblari bilan yuzma-yuz keladi. Shu orqali muallif inson xotirasining o‘chmasligi, o‘tmish izlari doimo ongda yashab qolishini ko‘rsatadi. Bosh qahramon



obrazi shu ma'noda nafaqat ishtirokchi, balki baholovchi ong, ichki tahlil markazi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Suvon aka obrazi esa tashqi jihatdan qudratli va ta'sirchan erkak sifatida tasvirlansa-da, aslida murakkab ichki holatga ega. U boylik va mavqega ega, atrofdagilar unga hurmat bilan qaraydi, biroq oilaviy hayotda u yetakchi emas, aksincha, Boybichcha ta'siri ostida qolgan shaxs sifatida ko'rinadi. Uning gaplaridagi ikkilanish, ayrim vaziyatlarda o'zini noqulay tutishi va xotiniga bo'lgan qaramligi uning ichki zaifligini ochib beradi. Shu bilan birga, u ba'zan samimiy, oddiy inson sifatida ham ko'rinadi, bu esa obrazni yanada hayotiy qiladi. Suvon aka orqali muallif tashqi qudrat bilan ichki ojizlik o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi

– *Aslida hokimlik o'zingizniki edi-ya, xonim. “Maktabgacha tarbiya”da o'qib xato qilgansiz-da.*

– *E, boshimga uramanmi, shu kunim o'zi poshsholik!*

– *Yarim soatga qolmay qaytaman, mehmon, ko'nglingizga olmaysiz-da endi, – dedi Suvon aka xijolatomuz. – Sizlar mana Boybichcha bilan xazon-xuzonlaringdan gurung qilib o'tirasizlar, xo'pmi? – So'ng u hovli tarafga yuzlanib kimnidir chaqira boshladi: – Sattor! Ho' Sattor! Moshinangni qo'sh, ukam!*

Xulosa qilib aytganda, “Hulo'l” hikoyasidagi obrazlar orqali Erkin A'zam inson hayotidagi asosiy qarama-qarshiliklarni — boylik va ma'naviyat, tashqi muvaffaqiyat va ichki bo'shliq, ezilish va poklik o'rtasidagi tafovutni ochib beradi. Boybichcha, Oybibbi va bosh qahramon taqdirleri misolida muallif insonni ulug'laydigan narsa uning mavqei emas, balki qalbida saqlanib qolgan insoniylik ekanini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. –T.: Turon zamin ziyo,2014. –304 b.



2. “Жаҳон адабиёти”, 2016 йил, №12, 129-б.
3. Karimov N. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –Т.: 1999. –544 б.
4. Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.
5. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Sharq”, 2007. –352 б.
6. Отаев Р. Дилрабо кўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Т.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 б.
- 4 <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-h>